

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

4-son (5-jild)

**2025**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING  
DOLZARB MUAMMOLARI**

*№ 4 (5) - 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxonovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

#### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

#### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

*22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

## **OAK Ro‘yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

### **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

### **Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Maxmudov Mansurjon Abdug‘opporovich</i> TARIXIY ASARLAR VA ULARNI O‘RGANISH: MILLIY ZIYOLILAR TOMONIDAN OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR .....	12-17
<i>Qurbonov Xurshid Raupovich</i> O‘ZBEKISTONDAN JANUBIY URALGA SAFARBAR QILINGAN “MEHNAT ARMIYACHILARI” VA ULARNING TA‘MINOTI .....	18-22
<i>Salayev Fazliddin Shamsiddin o‘g‘li</i> O‘ZBEKISTONDA DEMOGRAFIYANING RIVOJLANISH TARIXI VA SHAKLLANISHI .....	23-28
<i>Abbasov Behzod Baxtiyorovich</i> FARG‘ONA OBLASTIDA TASHKIL QILINGAN XO‘JALIKLARDA IJTIMOYIY MUAMMOLAR VA KO‘CHIRILGAN AHOLINING YANGI SHAROITGA MOSLASHISHI (1946-1965).....	29-35
<i>Mirzaliyev Ulug‘bek, Klichev Ulug‘bek</i> O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY ARXIVLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH BORASIDAGI ISHLAR VA ISLOHOTLAR .....	36-39
<i>Tursunova Gavhar Begmuradovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIDA OLIB BORGAN MA‘MURIY-SIYOSIY BOSHQARUV TIZIMI (XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI) .....	40-50
<i>Vaxobov Doston Abdumannob o‘g‘li</i> IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA MAKTAB, TIBBIYOT VA SOG‘LIQNI SAQLASH XODIMLARINING G‘ALABAGA QO‘SHGAN HISSASI .....	51-54
<i>Sodiqova Yulduzxon Maxamat qizi</i> O‘ZBEKISTONDA MAKTAB TA‘LIMINI ISLOH QILINISHI VA UNDAGI O‘ZGARISHLAR (1991-2024 yy).....	55-59
<i>Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich</i> QUYI SIRDARYOBO‘YI HUDUDLARIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR VA ULARNING NATIJALARI .....	60-64
<i>Yo‘ldosheva Gulbahor Nuriddinovna</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘RTA UMUMTA‘LIM MAKTABLARINING AHVOLI VA MODDIY – TEXNIKA BAZASINING MUSTAHKAMLANISHI (QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI MISOLIDA).....	65-69
<i>Mardiyeva Guzal Karimovna</i> XOTIN-QIZLARNING 1950-1980-YILLARDA SAMARQAND VILOYATI ILM-FAN SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI .....	70-75
<i>Narziyev Rustambek Xaydarovich</i> HARAKATLAR STRATEGIYASIDA NOGIRONLIGI BOR YOSHLAR UCHUN YARATILGAN IMKONIYATLAR .....	76-80

<i>Abdullayev Ilhomjon Ikromjonovich</i> XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA NAMANGAN SHAHRINING IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI .....	81-87
<i>Sodiqova Maxbubaxon Raxmonaliyevna</i> O'ZBEKISTONNING MILLIY HUNARMANDCHILIGI RIVOJIDA IPAKCHILIKNING O'RNI .....	88-92
<i>G'ulomjon Jumanazarovich Axmedov</i> O'ZBEKISTON TARIXIDA KONCHILIK ISHI VA METALLURGIYA RIVOJLANISHI .....	93-99

## **08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

<i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i> BARQARORLIK REYTINGI ORQALI FISKAL INTIZOM VA BIZNES MUHITINI RAG'BATLANTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI .....	100-116
<i>Юлдашева Надира Викторовна</i> «ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ЗАКУПКИ ПОД КОНТРОЛЕМ: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКОЙ МОДЕЛИ МОНИТОРИНГА».....	117-123
<i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i> ERKIN IQTISODIY ZONALARDA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISH .....	124-128
<i>Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li</i> TURISTIK VA REKREATSION KLASTERNING MUVAFFAQIYATLI FAOLIYAT YURITISH TAMOYILLARINI TIZIMLASHTIRISH .....	129-135
<i>Xadimova Aziza Abdufattoyevna</i> SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK O'ZGARISHLARI VA IQTISODIY RIVOJLANISHI.....	136-145
<i>Tashpulatov Giyos Toxirovich</i> XORIJIY BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR REYTINGI VA RENKINGINI BAHOLASHDA KOMPLEKS YONDASHUVNING QO'LLANILISHI TAHLILI (ROSSIYADAGI BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR MISOLIDA) .....	146-159
<i>Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna</i> O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA INSON KAPITALINING TA'SIRI .....	160-164
<i>Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi</i> “QUTIDA RO'YXATGA OLISH” (SHELF-REGISTRATION) AMALIYOTINI JORIY ETISH ....	165-169

## **09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

<i>Komilov Ro'zi Rabiyeovich</i> OILA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MODDIY VA MA'NAVIY OMILLARNING FALSAFIY TAHLILI .....	170-172
<i>Хакимов Эркин</i> ЗНАНИЕ ЛОГИКИ КАК УСЛОВИЕ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ МЫШЛЕНИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ .....	173-180
<i>Usmonova Laylo Raxmatullayevna</i> SHARQ FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI.....	181-185
<i>Karimov Yo'ldosh Ergashevich</i> TARIXNI SOXTALASHTIRISHNING TARIXIY TAFAKKURGA TA'SIRI MASALALARI .....	186-191

<i>Agzamходжаева Шахноза Саидматмабевна</i> О ЦЕЛИ И СОДЕРЖАНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ЖИЗНИ, ДУХОВНОМ СОВЕРШЕНСТВЕ (ПО ПРОИЗВЕДЕНИЯМ АЛИШЕРА НАВАИ).....	192-195
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i> ZAMONAVIY IQTISODIY TARG'IBOT VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	197-204
<i>Evatov Salimjon</i> MARKAZIY OSIYODA TASAVVUFY TAFAKKUR RIVOJI: IX-XII ASRLAR MEROSI .....	205-209
<i>Turobov Yorqinjon Yoqub o'g'li</i> ISLOM TA'LIMOTIDA SIYOSAT VA HOKIMIYAT FALSAFASI .....	210-213
<i>Toshpulatov Odil Nodirovich</i> IJTIMOIY MUNOSABATLARDA AMORALIZM VA IMMORALIZMNI OLDINI OLISHDA MAVJUD ME'YORLARNING AHAMIYATI .....	214-217
<i>Kunisheva Nadira Julanovna</i> "IJTIMOIY BAG'RIKENGLIK" TUSHUNCHASINI TADQIQ ETISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI .....	218-223
<i>Eshpulatov Inoyat</i> FAXRIDDIN ROZIY YASHAGAN DAVR: IJTIMOY-SIYOSIY VAZIYAT VA MA'NAVIY MUHIT .....	224-231
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Nuniyazova Shaxlo Ulugbekovna</i> O'ZBEK ONOMASTIKASIDA GIDRONIMLARNING LINGVOMADANIY SHAKLLANISHI .....	232-236
<i>Алиева Эльвина Аметовна</i> ЛЕКСИЧЕСКИЙ И ЛЕКСИКО-СИНТАКСИЧЕСКИЙ ПОВТОРЫ С РАСПРОСТРАНЕНИЕМ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОЧЕРКАХ М. ЦВЕТАЕВОЙ .....	237-243
<i>Usmanova Sevara</i> INGLIZ VA O'ZBEK TARIXIY ROMANLARIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TO'QIMA.....	244-251
<i>Ochilov Ulug'bek Sayfulloyevich</i> MAGIK REALIZMNING MADANIYAT VA ADABIYOTGA TA'SIRI .....	252-260
<i>Daminova Rahima Malikovna</i> ATOYI SHE'RIYATINING BADIY LATOFATI.....	261-266
<i>Yusupov Asror</i> PUBLITSISTIK MATNLARDA UCHROVCHI LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKLAR TARJIMASIGA LEKSIKOGRAFIK YONDASHUV .....	267-271
<i>Ruziyeva Nasiba Kenjayevna</i> VLADIMIR GEORGEVICH GAKNING TARJIMA MASALALARIGA DOIR TADQIQOTLARI .....	272-276
<i>Batirkhanova Madina Oybekovna</i> COMPONENT ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH FICTION.....	277-281
<i>Sirojiddinova Shakhribonu</i> THE FORMATION OF MYTHOLOGY AND THE INFLUENCING FACTORS.....	282-285

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i> DAVLAT XIZMATLARI VA FUQAROLIK-HUQUQIY XIZMATLAR TUSHUNCHASI HAMDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	286-292
<i>Wang Cong</i> RESEARCH ON LEGAL ISSUES OF PERSONAL INFORMATION PROTECTION .....	293-300
<i>Лу Адук</i> К ВОПРОСУ О ПОНЯТИИ И КЛАССИФИКАЦИИ ВИДОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ .....	301-310
<i>Abdurashidova Zarina Turg'un qizi</i> FUQAROSIZLIKKA QARSHI MUROSASIZLIK: HUQUQIY CHORALARNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI .....	311-315
<i>Axmatov Olimjon Odilovich</i> “KRIPTO-AKTIVLAR VA VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH, O'TKAZISH VA AYIRBOSHLASH: IQTISODIY, HUQUQIY XAVF-XATARLAR VA ULARNING OLDINI OLISHDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI” .....	316-322
<i>Xatamov To'liqin Tojiddinovich</i> KUCHLI TA'SIR QILUVCHI VA GIYOHVANDLIK VOSITALARINI YANGI TURLARINI NOQONUNIY MUOMALASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI .....	323-329
<i>Kuchimova Shaxlo</i> VORISLIK HUQUQIDA MEROS MAJBURIYATI .....	330-337
<i>O'rinova Dilshoda Adhamovna</i> OILAVIY ZO'RAVONLIK JINOYATINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI HAMDA USHBU TURDAGI JINOYATLARDA AYOLLAR JABRLANISHINI OLDINI OLISH BO'YICHA FARG'ONA TAJRIBASI .....	338-347
<i>Geng Zhimin</i> RESEARCH ON THE INDEPENDENCE OF THE INTERNATIONAL CRIMINAL COURT.....	348-351
<i>Xidirov Mexroj Qilich o'g'li</i> ELEKTRON TO'LOV VOSITALARI ORQALI SODIR ETILADIGAN FIRIBGARLIK JINOYATLARINING SABABLARI, ULARNING SODIR ETILISHIGA IMKON BERUVCHI OMILLAR .....	352-357
<i>Тулаганов Элмурод</i> ВОПРОСЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ .....	358-367
<i>Bozorboyev Farruh, Boboxonov Akromxon</i> DASTLABKI TERGOV BOSQICHIDA PROTSESSUAL HARAKATLARNI SODDALASHTIRISH: XOLIS INSTITUTI .....	368-374
<i>Abbosov Mirsulton Mirsharof o'g'li</i> JINOYAT QONUNCHILIGIDA SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIY XAVFLILIGI .....	375-382

<i>Mamatov Islom Qosim o'g'li</i> DAVLAT XARIDLARI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI FOSH ETISH USULLARI, AMALIYOTDAGI MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR .....	383-392
<i>Kamilov Oybek</i> O'ZBEKISTONNING MIGRATSIYA SOHASIDA MINTAQAVIY TASHKILOTLAR VA XORIJIY DAVLATLAR BILAN HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI .....	393-402
<i>Абророва Камола Саидмухторовна</i> ВЛИЯНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО КОММЕРЧЕСКОГО АРБИТРАЖА НА ИНВЕСТИЦИОННЫЙ КЛИМАТ УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ .....	403-410
<i>Ne'matova Muborak Odiljonovna</i> RAQAMLI FUQAROLIKNING MOHIYATI VA UNI SHAKLLANTIRISHGA OID DOLZARB MUAMMOLAR (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA) .....	411-418
<i>Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi</i> "HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTIGA SUN'IY INTELLEKTNI INTEGRATSIYA QILISHNING AXLOQIY VA HUQUQIY MASALALARI" .....	419-427
<i>Agzamova Qizlarxon Baxtiyorovna</i> INSOFLI EGALLOVCHINING HUQUQIY MAQOMIGA OID AYRIM MASALALAR .....	428-432
<i>Shomirzayev Saxodulla, Sherkulov Azamat</i> VALYUTA QIMMATLIKLARINI BOJXONA CHEGARASIDAN OLIB O'TISH BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLARNI ANIQLASH VA JAVOGBARLIK ASOSLARI .....	433-441
<i>Jumanazarov Faxriddin Erkinovich</i> KONTRAFAKT MAHSULOTLAR KONTRABANDASI NATIJASIDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI BUZILISHINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI.....	442-448
<i>Ergashev Sharifjon Shuhrat o'g'li</i> YASHIRIN IQTISODIYOTNING JAMIYAT IJTIMOYIY-IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI VA UNGA QARSHI KURASHISHDA BOJXONA AUDITINING O'RNI .....	449-457
<i>Mansurov Arslon Askarovich</i> "IJTIMOIY DAVLAT" TAMOYILINING YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI HUQUQIY MAQOMI VA XALQARO TAJRIBA BILAN TAQQOSLAMA TAHLILI .....	458-463
<b>13.00.00 - PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i> "JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI" FANIDAN NAZARIY MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISH METODIKASI .....	464-470
<i>Yusubjanova Musharraf Tursunali qizi</i> EHTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKANI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QITISH: XORIJIY TAJRIBA VA ILMIY YONDASHUVLAR .....	471-475
<i>Fayzullayeva Gulchexra, Kurbonova Gulmira</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOLLABORATIV O'QUV MUHITINI LOYIHALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR .....	476-481

<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i> ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINING MAZMUNI VA TARKIBIY TUZILISHI.....	482-485
<i>Mirsanova Moxira Xusniddin qizi</i> FANTASTIK IFODA SHAKLLARI VA UNING BADIYATI .....	486-491
<i>Tursinova Zoxida Sharabidinovna</i> TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAKTAB O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI VAHOLASH MEKANIZMLARINING TAKOMILLASHUVIDA TA'LIM MENEJMENTINING O'RNI .....	492-496
<i>Раббимова Нодира Таштемировна</i> ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ИНФЕКЦИОННЫХ БОЛЕЗНЕЙ В ВУЗЕ .....	497-501

**Received:** 16 March 2025

**Accepted:** 5 April 2025

**Published:** 15 April 2025

*Article / Original Paper*

## **"ILLEGAL ACQUISITION, TRANSFER, AND EXCHANGE OF CRYPTO-ASSETS AND CURRENCY SECURITIES: ECONOMIC AND LEGAL RISKS AND THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THEIR PREVENTION"**

**Akhmatov Olimjon Odilovich**

Mayor in the Reserve of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

**Abstract.** This article is dedicated to the issues of acquiring, transferring, or exchanging currency assets, including cryptocurrencies, in violation of the law. The article analyzes the economic, legal, and security implications of illegal currency operations. It examines how such actions weaken financial systems, facilitate money laundering, and operate outside the legal framework. The study highlights the challenges faced by law enforcement agencies in combating these illegal activities, as well as the economic consequences such as market instability and the loss of public trust. The need for robust legal mechanisms to address these emerging threats in the digital financial environment is assessed from a legal perspective. Additionally, the article discusses regulatory frameworks in the field of cryptocurrencies, their illegal circulation, and the laws and measures adopted globally to combat such activities. The article also presents the reactions of currency markets to illegal activities and offers recommendations for addressing these issues.

**Keywords:** cryptocurrency, administrative prejudice, illegal operations, money laundering, economic risks, legal regulation, financial crimes, digital currency, regulatory challenges.

## **"KRIPTO-AKTIVLAR VA VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH, O'TKAZISH VA AYIRBOSHLASH: IQTISODIY, HUQUQIY XAVF-XATARLAR VA ULARNING OLDINI OLIHDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI"**

**Axmatov Olimjon Odilovich**

O'zbekiston Respublikasi IIV

kadrlarning amaldagi zaxirasidagi mayori

**Annotatsiya.** Ushbu maqola valyuta qimmatliklarini, jumladan kripto-aktivlarni qonunga xilof ravishda olish, o'tkazish yoki ayirboshlash masalalariga bag'ishlangan. Maqolada, noqonuniy valyuta operatsiyalarining iqtisodiy, huquqiy va xavfsizlikka ta'siri tahlil qilinadi. Unda bunday harakatlar moliyaviy tizimlarni qanday zaiflashtirishi, pul yuvishga yordam berishi va qonunchilik doirasidan chetga chiqishi ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ushbu noqonuniy amaliyotlarga qarshi kurashdagi qiyinchiliklari ta'kidlanadi hamda bozor beqarorligi va jamoatchilik ishonchining yo'qolishi kabi iqtisodiy oqibatlar muhokama qilinadi. Raqamli moliyaviy muhitdagi ushbu yangi tahdidlarni bartaraf etish uchun mustahkam qonunchilik mexanizmlariga ehtiyoj huquqiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Shuningdek, kriptovalyutalar sohasidagi qonuniy regulyatsiyalar, ularning noqonuniy aylanishi va bunday faoliyatga qarshi kurashish uchun dunyo miqyosida qabul qilingan qonunlar va choralar muhokama qilinadi. Maqola valyuta bozorlarining noqonuniy faoliyatga nisbatan reaksiyalari va bu muammoni hal qilish bo'yicha takliflarni taqdim etadi.

**Kalit so'zlar:** kriptovalyuta, ma'muriy preyuditsiya, noqonuniy operatsiyalar, pul yuvish, iqtisodiy xavf-xatarlar, huquqiy tartibga solish, moliyaviy jinoyatlar, raqamli valyuta, tartibga solishdagi muammolar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I4Y2025N50>

**Kirish.** Bugungi kunda global iqtisodiyot va moliya tizimlari raqamli transformatsiyani amalga oshirayotgan bir paytda, valyuta qiymatliklari, jumladan kriptο-aktivlar, tobora ko‘proq e‘tiborni tortmoqda. Kriptο-aktivlar, markazlashtirilmagan va yirik moliyaviy institutlardan mustaqil ravishda ishlash imkoniyati tufayli, yuqori darajadagi anonimlik va tezlikni taqdim etadi. Bu esa o‘z navbatida, noqonuniy faoliyatlarga, jumladan, iqtisodiy xavf tug‘diruvchi tranzaksiyalarga olib kelmoqda. Valyuta qiymatliklarini qonunga xilof ravishda olish, o‘tkazish yoki ayirboshlash jinoyati boshqa jinoyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan ikkinchi darajali jinoyat turi hisoblanib, boshqa bir og‘ir va o‘ta og‘ir (*pul yuvish, terrorizmni moliyalashtirish*) jinoyatlarni keltirib chiqaradi [12].

Dunyo bo‘yicha valyuta va kriptο-valyutalar bilan bog‘liq noqonuniy faoliyatlarning hajmi har yili ortib bormoqda. Masalan, 2021-yilda butun dunyo bo‘ylab kriptο-valyutalar bilan bog‘liq noqonuniy tranzaksiyalar hajmi 14,000,000,000 (o‘n to‘rt milliard) AQSh dollariga yetgan [6]. Bu ko‘rsatkich, so‘nggi yillarda kriptο-valyutalarning noqonuniy aylanishini tartibga solishda muammolarni kuchaytirmoqda. Xususan, kriptο-valyutalar orqali naqd pul oqimining cheklanmaganligi, transaktsiyalarning anonimligi va transchegaraviy tranzaksiyalarning osonligi, bu muammoning global miqyosda hal etilishini qiyinlashtiradi [6]. Xalqaro moliyaviy tashkilotlar, masalan, Moliyaviy Harakatlar Xalqaro Kengashi (*Financial Action Task Force*), davlatlar va xususiy sektorga kriptο-valyutalarni noto‘g‘ri ishlatishni oldini olishga yordam beradigan qoidalar ishlab chiqishni talab qilmoqda. FATF tomonidan 2020-yilda chiqarilgan “Virtual Aktivlar va Ularning Ta‘minlovchilariga Doir Qoidalar”da kriptο-valyutalar bilan bog‘liq faoliyatlarni tartibga solish va monitoring qilishning zarurligi ta‘kidlangan [8].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida ham ushbu jarayonlar qonunchilik doirasida tartibga solinmoqda, ammo qonunga xilof harakatlar sonining ortishi davlat organlarini qattiqroq choralar ko‘rishga undamoqda [12]. Valyuta qiymatliklarini, xususan, kriptο-valyutani noqonuniy yo‘l bilan olish yoki o‘tkazish nafaqat iqtisodiy barqarorlikka putur yetkazadi, balki jinoiy faoliyat, jumladan, pul yuvish (*jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish*) va terrorizmni moliyalashtirish kabi xavfli oqibatlariga olib kelishi mumkin. Valyuta qiymatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o‘tkazish — O‘zbekiston Respublikasi MJKning 170-moddasida valyuta boyliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o‘tkazish uchun ma‘muriy javobgarlik o‘rnatilgan. Fuqarolarning qonunga xilof ravishda valyuta qiymatliklarini olishi yoki o‘tkazishi, shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan (**ma‘muriy preyuditsiya**) keyin sodir etilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi JKning 177-moddasiga asosan jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi [6]. O‘zbekistonda kriptο-valyuta bilan bog‘liq noqonuniy operatsiyalarning aniq statistikasi rasmiy ravishda to‘liq e‘lon qilinmagan bo‘lsa-da, mavjud ma‘lumotlarga ko‘ra, so‘nggi yillarda bunday huquqbuzarliklar soni oshgan [12].

Ushbu jinoyatni yuridik jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsak, jinoyatning ijtimoiy xavfiligi bo‘lib, valyuta qiymatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o‘tkazish bilan aybdor milliy valyutaning barqarorligiga ta‘sir qilib, infiliatsiya jarayoning keskinlashuvi uchun shart-sharoit yaratadi [4.]. Bundan tashqari, “Valyuta qiymatliklarini qonunga xilof ravishda olish va o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasining valyuta yakka hukmronligiga putur yetkazadi, ular ko‘pincha talon-toroj qilish, poraxo‘rlik, bojxona qonunchiligini buzish kabi jinoyatlar bilan bog‘liq bo‘ladi”[5.].

Har qanday jinoyatning obyekti bo'lib muayyan ijtimoiy munosabatlar hisoblansa, ushbu jinoyatning obyekti bo'lib **davlatning iqtisodiyot asoslarini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlari** hisoblanadi. Jinoyatning predmeti – valyuta qimmatliklarid. O'zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to'g'risida”gi Qonunga ko'ra, valyuta qimmatliklari — chet el valyutasi, nominali chet el valyutasida ifodalangan qimmatli qog'ozlar va to'lov hujjatlari, norezidentlar tomonidan chiqarilgan, nominalga ega bo'lmagan qimmatli qog'ozlar, sof quyma oltin kirishi belgilangan.

Ushbu jinoyatning obyektiv tomoni bo'lib, shunday harakat uchun ma'muriy jazo qo'llanilgandan keyin, ya'ni ma'muriy preyuditsiya bo'lib, fuqarolarning qonunga xilof ravishda ancha miqdorda valyuta qimmatliklarini **olish** yoki **o'tkazishda** ifodalaniladi. “Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazishga doir ishlar yuzasidan sud amaliyoti to'g'risida”gi 8-sonli OSPQning 4- hamda 5-bandlariga ko'ra, valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish deb, O'zbekiston Respublikasi hududida ushbu harakatlar sodir etilgan vaqtda valyuta qimmatliklarini o'rnatilgan tartiblarni buzgan holda **sotib olish, sotish** yoki **almashtirish** tushuniladi. Valyuta qimmatliklarini **saqlash** va **tashish** holatlari o'zicha valyuta qimmatliklarini noqonuniy **olish** yoki **o'tkazishni** tashkil etmaydi [5].

Shuningdek, subketiv tomondan to'g'ri qasddan sodir etiladi. Jinoyatning subyekti 16 yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxs hisoblanadi.

“Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazishga doir ishlar yuzasidan sud amaliyoti to'g'risida”gi 8-sonli OSPQning 9-bandiga ko'ra, qilmishni JK 177-moddasi ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi qismlari bilan kvalifikatsiya qilishda jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to'g'risidagi qarorda, ayblov dalolatnomasi (ayblov xulosasi) va hukmda aybdorning qilmishi aynan qanday belgiga ko'ra javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatda sodir etilgan deb topilganligi aks ettirilishi shart. Bunda shuni inobatga olish lozimki, qilmishni JK 177-moddasi ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi qismlari bilan kvalifikatsiya qilish uchun shaxs muqaddam valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish uchun ma'muriy javobgarlikka tortilgan bo'lishi talab etilmaydi.

Shuningdek, qilmishni JK 177-moddasi ikkinchi qism “b” va uchinchi qism “a” bilan kvalifikatsiya qilishimiz uchun zararni miqdoriga e'tibor qaratish lozim. Jinoyat kodeksining sakkizinchi bo'lim “atamalarining huquqiy ma'nosi” keltirib o'tilgan bo'lib, unga asosan qilmishni JK 177-moddasi ikkinchi qism “b” bandi ko'ra ko'p miqdor deganda, bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha bo'lgan miqdor tushuniladi [2]. Qilmishni JK 177-modda uchinchi qism “a” bilan kvalifikatsiya qilishimiz uchun esa, juda ko'p miqdordagi zararda tutilgan bo'lib, ushbu miqdor bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz baravari va undan ortiq bo'lgan miqdordagi zarar hisoblanadi [2].

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 193.1-moddasiga ko'ra, chet el valyutasida yoki Rossiya Federatsiyasi valyutasida soxta hujjatlardan foydalangan holda norezidentlarning hisobvaraqlariga pul mablag'larini o'tkazish bo'yicha valyuta operatsiyalarini amalga oshirish normasi mustahkamlangan. Ushbu normaning dispozitsiya qismiga ko'ra, valyuta nazorati agenti vakolatiga ega bo'lgan kredit tashkilotiga hujjatlarni, bunday operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq va bila turib yolg'on ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjatlarni taqdim etgan holda bir yoki bir nechta norezidentlarning bank hisob raqamlariga chet el valyutasida yoki Rossiya Federatsiyasi valyutasida pul mablag'larini o'tkazish bilan bog'liq valyuta operatsiyalarini amalga oshirish tushuniladi [9].

Qozog‘iston Respublika Jinoyat kodeksining 235-1-moddasi ko‘ra, Qozog‘iston Respublikasidan valyuta boyliklarini noqonuniy olib chiqish, jo‘natish va o‘tkazish normasi mustahkamlangan. Ushbu normaning dispozitsiya qismiga ko‘ra, tegishli operatsiyalar va boshqa qarshi to‘lov majburiyatlarining haqiqiy qiymatidan (narxidan) oshib ketadigan hajmdagi (o‘lchamdagi) valyuta qiymatlarini Qozog‘iston Respublikasidan olib chiqish, jo‘natish yoki o‘tkazish, shu jumladan qalbaki hujjatlarni qo‘llash, ishlarning, xizmatlarning, tovarlarning narxini (narxini) sun‘iy ravishda oshirish tushuniladi [10].

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 177-moddasiga ko‘ra, Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o‘tkazish. Ushbu normaning deispozitsiya qismiga tasvirlovchi hisoblanib, unga ko‘ra, fuqarolarning qonunga xilof ravishda valyuta qimmatliklarini olishi yoki o‘tkazishi shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa (*ma‘muriy preyuditsiya*) [2].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 278<sup>8</sup>-moddasiga ko‘ra, kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi qonunchilikni buzish normasi mustahkamlangan. Ushbu noramaganing ham dispozitsiya qismi tasvirlovchi hisoblanib, unga ko‘ra, kripto-aktivlarni qonunga xilof ravishda olish, o‘tkazish yoki ayirboshlash, belgilangan tartibda litsenziya olmasdan kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari faoliyatini amalga oshirish yoxud kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari tomonidan anonim kripto-aktivlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa (*ma‘muriy preyuditsiya*) [2]. O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 155<sup>4</sup>-moddasi kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi qonunchilikni buzish. Ya‘ni, ushbu normaning dispozitsiya qismi tasvirlovchi xususiyatga ega bo‘lib, normaning 1-qismiga ko‘ra, kripto-aktivlarni qonunga xilof ravishda olish, o‘tkazish yoki ayirboshlash, belgilangan tartibda litsenziya olmasdan kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari faoliyatini amalga oshirish belgilangan. Ushbu normaning 2-qismiga ko‘ra, kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari tomonidan anonim kripto-aktivlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish tushuniladi.

Qozog‘iston: Qozog‘istonda kripto-aktivlar “Raqamli aktivlar to‘g‘risida”gi qonun (2023-yil 6-fevral, № 8-VIII 3PK) bilan tartibga solinadi. Qozog‘iston Jinoyat kodeksida (2023-yil holatiga ko‘ra) kripto-aktivlar aylanmasi qonunchiligini buzishga oid maxsus modda mavjud emas, lekin JKning 214-moddasi (noqonuniy tadbirkorlik faoliyati) yoki 190-modda (firibgarlik) kabi umumiy normalar qo‘llanilishi mumkin. Qozog‘iston Astana Xalqaro Moliya Markazi (AIFC) orqali kripto-aktivlar sohasini rivojlantirishga e‘tibor qaratgan bo‘lsa-da, jinoyat qonunchiligida bu soha hali to‘liq aks etmagan.

Rossiya Federatsiyasi: Rossiyada kripto-aktivlar bilan bog‘liq faoliyat 2021-yil 1-yanvardan kuchga kirgan “Raqamli moliyaviy aktivlar to‘g‘risida”gi qonun (№ 259-FZ) bilan tartibga solinadi. Rossiya Jinoyat kodeksida kripto-aktivlarga oid maxsus modda mavjud emas, lekin umumiy normalar, masalan, JKning 172-moddasi (noqonuniy bank faoliyati) yoki 174-modda (jinoiy yo‘l bilan olingan daromadlarni legallashtirish) kripto-aktivlar bilan bog‘liq noqonuniy operatsiyalarga qo‘llanilishi mumkin. 2024-yil holatiga ko‘ra, Rossiyada kripto-aktivlar aylanmasini yanada qattiqroq tartibga solish bo‘yicha qonun loyihalari ko‘rib chiqilmoqda, ammo O‘zbekistondagi kabi maxsus jinoyat moddasi hali kiritilmagan. Amaliy misollarga murojaat qiladigan bo‘lsak, Rossiyada 2022-yilda sun‘iy intellekt yordamida

noqonuniy Bitcoin operatsiyalari aniqlangan. Ushbu sxema bo'yicha ushbu ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan jinoyatchilar soxta kompaniyalar orqali Bitcoin xarid qilgan va kripto-aktivlarni noqonuniy transchegaraviy tranzaksiyalarda ishlatgan holda naqd pulni kripto-aktivlarga aylantirib, chet elga jo'natgan. Shuning uchun ham ushbu jinoyat boshqa jinoyatlar bilan bog'liq bo'lgan ikkinchi darajali jinoyat turi hisoblanib, boshqa bir og'ir jinoyatlarni keltirib chiqaradi [11].

Shuningdek, hozirgi kunda xalqaro miqiyosda keng foydalanilayotgan eng samarali usul va vositalardan biri bu – Sun'iy intellekt hisoblanadi. Kripto-aktivlar va valyuta qimmatliklarini noqonuniy olish, o'tkazish va ayirboshlash jinoyatlari oldini olishda sun'iy intellektning o'rni juda ham yuqori hisoblanadi. Kripto-valyutalar va valyuta qimmatliklarini noqonuniy olish yoki o'tkazish global moliyaviy tizimga, iqtisodiy barqarorlikka va huquqiy xavfsizlikka jiddiy tahdid solmoqda. Ushbu maqolada tahlil qilinganidek, kripto-aktivlarning markazlashmagan tabiati, anonimligi va transchegaraviy tranzaksiyalarni amalga oshirish qulayligi ularning noqonuniy faoliyatlarda, jumladan, pul yuvish, soliq to'lashdan bo'yin tovlash va terrorizmni moliyalashtirishda qo'llanilishiga sharoit yaratmoqda. Hozirgi davrda raqamli moliyaviy operatsiyalar kengayib borar ekan, sun'iy intellekt (SI) ushbu jarayonlarning xavfsizligini ta'minlash va noqonuniy operatsiyalarni aniqlashda muhim vositaga aylanmoqda. Ayniqsa, kripto-aktivlar va valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish, o'tkazish va ayirboshlash jinoyatlariga qarshi kurashda SI kuchli nazorat mexanizmini ta'minlashga yordam beradi. SI blokcheyn-tranzaksiyalar, bank operatsiyalari, davlat xaridlari va moliyaviy hujjatlarni real vaqt rejimida tahlil qilib, shubhali naqshlarni aniqlashga qodir. Masalan, tez-tez amalga oshiriladigan katta miqdordagi kripto-valyuta o'tkazmalari yoki bir xil IP-manzildan turli hisob raqamlarga pul o'tkazilishi pul yuvish (money laundering) yoki noqonuniy aktivlarni yashirish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Mashinaviy o'rganish algoritmlari jinoyatchilar tomonidan qo'llanilayotgan uslublarni o'rganib, yangi firibgarlik sxemalarini aniqlash va bashorat qilish imkonini beradi. Masalan, SI soxta shaxslar yoki bir necha marta ro'yxatdan o'tgan kompaniyalar orqali amalga oshirilayotgan noqonuniy operatsiyalarni aniqlashi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa qiladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasida valyuta qimmatliklari, jumladan, kripto-aktivlarning noqonuniy aylanishi huquqiy jihatdan Jinoyat kodeksining 177-moddasi va 278<sup>8</sup>-moddalari bilan tartibga solingan bo'lsa-da, ushbu sohada hali ham muammolar mavjud. Xususan, davlat organlari oldida:

- Kripto-valyutalar orqali noqonuniy moliyaviy oqimlarni samarali kuzatish,
- Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning texnologik imkoniyatlarini oshirish,
- O'zbekiston qonunchiligini xalqaro normalarga moslashtirish,
- Litsenziyalangan kripto-birjalar faoliyatini takomillashtirish kabi dolzarb vazifalar turibdi.

Xalqaro tajribani tahlil qilgan holda, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Kripto-tranzaksiyalarni kuzatish mexanizmlarini kuchaytirish – FATF (Financial Action Task Force) va boshqa xalqaro tashkilotlar tavsiyalariga muvofiq, raqamli valyuta harakatlarini real vaqt rejimida monitoring qilish tizimlarini joriy etish lozim.

O'zbekistonda sun'iy intellektning huquqiy nazoratdagi o'rnini yanada kuchaytirish:

- Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning salohiyatini oshirish – Maxsus IT-ekspertlar va moliyaviy tergov organlari tayyorlash, blokcheyn tahlili bo'yicha xalqaro amaliyotlarni joriy qilish muhim.
- Litsenziyalash tizimini kuchaytirish – Kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlarini tartibga solish orqali noqonuniy faoliyatni kamaytirish mumkin.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasida kripto-aktivlar bilan bog'liq huquqbuzarliklar va ularning oldini olish bo'yicha huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish hamda xalqaro tajribaga asoslangan holda innovatsion nazorat usullarini joriy etish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ushbu yo'nalishda samarali strategiyalarni ishlab chiqish valyuta bozori barqarorligini ta'minlash va moliyaviy jinoyatchilikka qarshi kurashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston Jinoyat kodeksining 278<sup>8</sup>-moddasiga o'xshash tarzda kripto-aktivlar aylanmasi qonunchiligini buzishni maxsus jinoyat sifatida belgilovchi norma hozircha boshqa MDH davlatlarining jinoyat qonunchiligida aniq mustahkamlanmagan. Ko'p hollarda bu davlatlar umumiy jinoyat normalarini (noqonuniy tadbirkorlik, firibgarlik, pul yuvish) qo'llash orqali kripto-aktivlar bilan bog'liq huquqbuzarliklarni tartibga soladi. O'zbekiston bu borada MDH davlatlari ichida kripto-aktivlarga oid maxsus jinoyat normasini Jinoyat kodeksiga kiritgan ilk davlatlardan biri hisoblanadi. Biroq, Rossiya va Qozog'iston kabi davlatlarda shunga o'xshash maxsus normalar paydo bo'lishi ehtimoli yuqori, chunki ular raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan qonunchilikni faol ishlab chiqmoqda.

#### Adabiyotlar/Literatura/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Mazkur yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish yo'li bilan qabul qilingan. <https://lex.uz/docs/-6445145>;
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 278<sup>8</sup>-177-moddasi va kodeksining sakkizinchi bo'lim "Atamalarning huquqiy ma'nosi". <https://lex.uz/docs/-111453>;
3. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 155<sup>4</sup>-170-moddalari. <https://lex.uz/docs/-97664>;
4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism. M.X. Rustambayev. Toshkent "Adolat" 2016;
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining Qarori 2000 yil 28 apreldagi "Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazishga doir ishlar yuzasidan sud amaliyoti to'g'risida" gi 8-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/-1449617>;
6. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi. 2009. Aralash · Onlayn o'qish. Yuridik maslahat portali. Onlayn yuridik xizmatlar, hujjat namunalari. <https://library-tsul.uz/uzbekiston-yuridik-entsiklopediyasi-2009/>
7. Chainalysis. (2021). 2021 Crypto Crime Report. Chainalysis. <https://go.chainalysis.com/rs/503-FAP-074/images/Chainalysis-Crypto-Crime-2021.pdf>;
8. FATF (2020). Guidance for a Risk-Based Approach to Virtual Assets and Virtual Asset Service Providers. Financial Action Task Force (FATF). <https://www.fatf-gafi.org/en/publications/Fatfrecommendations/Guidance-rba-virtual-assets-2021.html>;
10. "Уголовный кодекс Российской Федерации" от 13.06.1996 N 63-ФЗ (ред. от 28.12.2024) (с изм. и доп., вступ. в силу с 01.03.2025). УК РФ Статья 193.1;

11. Уголовный кодекс Республики Казахстан от 3 июля 2014 года № 226-V (с изменениями и дополнениями по состоянию на 06.03.2025 г.). Статья 235-1. [https://online.zakon.kz/Document/?doc\\_id=31575252](https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31575252);
12. Toshkent davlat yuridik universitetining [Kiber Huquq Kafedrası](https://cyber-law.uz/uz/subject/kiber-huquq/). Table of Contents. <https://cyber-law.uz/uz/subject/kiber-huquq/>;
13. Umurzoqov Mexroj Umar o`g`li. THE UNSEEN ENEMY: A SCIENTIFIC EXPLORATION OF DIGITAL RISKS, IMPLICATIONS OF DIGITAL RISKS, THREATS, AND SCAMS ON USERS' WELLBEING. <https://tadqiqotlar.uz/new/article/view/1439>

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 4 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).